

## MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY- MA‘NAVIYAT VA MARIFAT YO‘LINING SARBONI

**Mirkamolova Iroda Abror qizi**

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqotlar universiteti*

*1-bosqich bakalaviriyat talabasi*

[mirkamolovairoda@gmail.com](mailto:mirkamolovairoda@gmail.com)

**Anotatsiya:** *Ushbu maqola Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma‘naviy va madaniy yo‘lida olib borgan faoliyati va uning o‘z davrida ahamiyatini tahlil qiladi. Behbudiyning o‘zining adabiy, ilmiy, ilmiy va madaniy merosi orqali o‘zbek xalqining ma‘naviy tiklanishiga katta hissa qo‘shgan shaxs sifatida tanilgan. Maqolada u tomonidan amalga oshirilgan tarixiy, ma‘naviy va madaniy islohotlar, shuningdek, u yaratgan ilmiy asarlar va ularning o‘zbek jamiyatidagi ahamiyati haqida so‘z yuritiladi. Behbudiyning ma‘naviyatga oid qarashlari va u tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab qolganligi takidlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *Jadidchilik harakati, ma‘rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, ilm-ma‘rifat, ma‘naviy meros, o‘zbek ziyolilari, ta‘lim islohoti, Turkiston, teatr, matbuot, geografiya, tarixiy siymo, yoshlar tarbiyasi.*

**Kirish:** Millatning ma‘naviy yuksalishi, madaniy o‘zligini anglash va taraqqiyot sari intilish tarix sahnasida har doim yuksak tafakkur egalari, fidoiy ziyolilar vositasida amalga oshgan. O‘zbekiston tarixida shunday simolardan biri- Mahmudxo‘ja Behbudiyning bo‘lib, u o‘zining ma‘rifatparvarlik faoliyati, ilg‘or qarashlari va islohotchi ruhi bilan xalqimiz ma‘naviy uyg‘onishida muhim o‘rin egallaydi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab o‘tgan Behbudiyning jadidchilik harakatining asoschilaridan biri sifatida millat taqdiriga befarq bo‘lmagan, zamonasining ijtimoiy, siyosiy va madaniy muammolariga yechim izlagan ziyoli edi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning xalqni johillik, e‘tiqodsizlik va madaniy qoloqlikdan chiqarish uchun ilm-ma‘rifatni eng asosiy vosita sifatida ko‘rdi. U maktab va madrasalardagi ta‘lim tizimini isloh qilish, matbuot orqali xalqni ogohlikka chorlash, teatr san‘ati orqali esa ma‘naviy tarbiyani mustahkamlash g‘oyasini ilgari surdi. Uning “Padarkush” dramasi, “Taraqqiy” va “Oyina” gazetalaridagi faoliyati, yozgan maqola va asarlari

o‘zbek jamiyatida yangi bir tafakkur bosqichini boshlab berdi. Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’naviyat va madaniyat yo‘lidagi tutgan o‘rni, uning hayoti, faoliyati va merosi tahlil qilinadi. Shuningdek, u ilgari surgan g‘oyalar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi, aksincha, yosh avlod uchun ibrat manbai bo‘lib xizmat qilayotganligi haqida fikr yuritiladi.

**Asosiy qism.** Mahmudxo‘ja Behbudi 1875-yil 19-yanvarda, hijriy 1291-yil 10-Zulhijjada, Samarqand yaqinidagi Bahshitepa qishlog‘ida ruhoniylar oilasida dunyoga kelgan. Otasi Behbudxo‘ja Solihxo‘ja o‘g‘li, o‘z davrining savob ishlar bilan mashhur bo‘lgan imomlaridan biri bo‘lib, Ahmad Yassaviy naslidan edi. Onasi tomondan esa bobosi Niyozxo‘ja Urganchlik bo‘lib, Amir Shohmurod zamonida Samarqandga ko‘chib kelgan. Bu nasab zanjiri Behbudi shaxsiyatining shakllanishida muhim rol o‘ynadi, uni diniy-ma’naviy merosga sadoqatli qilib tarbiyaladi. Behbudiyning yoshlik yillari quvonchli ham, sinovli ham bo‘ldi. 1894-yilda otasining vafoti uni hayot haqiqatlari bilan erta yuzlashtiradi. Uning tarbiyasi tog‘asi qozikalon Muhammad Siddiq zimmasiga tushadi. Bu davrda Behbudi arab tili grammatikasi — sarf va nahv ilmini tog‘asi Odildan o‘rganadi. Yoshligidanoq ilmga chanqoqligi va aql-zakovati bilan ajralib turgan Mahmudxo‘ja 18 yoshida qozixonada mirzo sifatida ish boshlaydi. Behbudi avvalo an’anaviy diniy ta’limni chuqur o‘zlashtirgan. Samarqanddagi madrasalarda tahsil olib, Buxoroda ilm dargohlarida ham bilimni mustahkamlagan. U 1915-yilda rus olimi G. Andreyev bilan bo‘lgan suhbatida aynan o‘sha madrasaviy tahsilni yuksak qadrlaganini alohida ta’kidlaydi. Ammo uning o‘ziga borishi faqat an’anaviy ilmlar doirasida emas, balki o‘z ustida tinimsiz ishlashi, dunyoviy ilmlarga, zamonaviy tafakkurga ochiqqligi orqali yuz berdi. Shu yo‘l bilan u qozilik, muftiylik kabi sharaflar maqomlariga erishadi. Behbudi dunyoqarashining shakllanishida rus musulmon ziyolisi, jadidchilik harakatining asoschilaridan biri — Ismoilbek G‘aspiralining ta’siri ham katta bo‘lgan. G‘aspirali 1881-yilda yozgan “Rossiya musulmonlari” asarida musulmonlar o‘zligini yo‘qotmasdan zamonaviy taraqqiyotga erishishi faqat ma’rifat bilan bog‘liq ekanini ilgari surgan. Behbudi ana shu g‘oyani o‘z yurti sharoitiga moslab, uni amaliyotda tatbiq etgan: maktablar ochdi, o‘quv qo‘llanmalar yozdi, gazeta va jurnal nashr qildi, hatto sahna orqali xalq tafakkuriga ta’sir ko‘rsatdi. Uning o‘sha davrdagi faoliyati – ilm, adabiyot, teatr, jurnalistika, ta’lim-tarbiya sohalarini qamrab oldi. Ammo u faqat faol islohotchi emas edi – u o‘z xalqining ichidan

chiqqan, xalq dardini o‘z yuragida his qilgan va shu dardga davo bo‘lishni niyat qilgan ma’naviy yetakchi edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy faqat diniy-ma’naviy islohotlar bilan cheklanib qolmagan, balki dunyoviy fanlarni ham xalq orasida targ‘ib qilishni o‘z burchi deb bilgan siymolardandir. U o‘z asarlari orqali tarix, siyosat, madaniyat, til, adabiyot qatori tabiiy fanlar, jumladan, geografiya ilmini ham xalq ongiga singdirishga harakat qilgan. Bunga uning “Muntahabi jug‘rofiyai umumiy”, ya’ni “Umumiy geografiyadan tanlab olingan” asari yaqqol misol bo‘la oladi.

Uning mashhur “Kitobi muntahabi jug‘rofiyai umumiy va namunai jug‘rofiya” bo‘lib, 1906-yilda Samarqandda G. I. Demurov matbaasida chop etilgan. Asar o‘z zamoni uchun nihoyatda yangicha yondashuvda yozilgan bo‘lib, 106 sahifadan iborat. Behbudiy bu kitobda nafaqat geografiyaning umumiy tushunchalarini yoritadi, balki ilmiy terminologiyani, geosiyosiy jarayonlarni xalq tiliga tushunarli qilib yetkazadi. Asarni yozishda u 30 ga yaqin qadimiy va yangi manbalardan, shuningdek, arabiy, forsiy, turkiy, rusiy tillardagi risolalar va darsliklardan foydalanganini ta’kidlaydi. U geografiya ilmiga quyidagicha ta’rif beradi:

“Geografiya degan so‘z yunoncha bo‘lib, arabchaga tarjima qilinganda ta’rif alard’ – ya’ni yer va tuproqni bayon qiladigan ilm deganidir.”

Behbudiy geografiyani matematik (riyozatli), tabiiy, tarixiy, siyosiy, va umroniy (aholi joylashuvi va rivoji) turlarga ajratib, har birini alohida sharhlab o‘tadi. Jumladan, u shunday yozadi:

“Yer yuzining shakli, osmon bilan yer o‘rtasidagi munosabat, osmondagi jismlarning harakati bilan bog‘liq jihatlarni bayon qiladigan ilm ‘geografiyai riyoziy’ deyiladi. Tuproq xususiyatlari, o‘simliklar, konlar, tog‘- daryo, iqlim va havoning o‘ziga xos jihatlarni o‘rganuvchi ilm esa ‘geografiyai tabiiy’ deyiladi.”

Bu bilan u xalqni tabiat va makonni ilmiy asosda anglashga undaydi. Asarda shuningdek, “geografiyai tarixiy”, “geografiyai siyosiy”, “geografiyai umroniy” kabi tarmoqlarga alohida urg‘u beriladi. Behbudiy nazarida geografiya bu dunyoni, undagi mavjudot, xalqlar, tabiat va obodlikni o‘rgatadigan “ilmi jahonnamodur” – ya’ni dunyoni tanituvchi, anglatib beruvchi ilmdir.

Behbudiy bu asari orqali xalqni zamonaviy bilimlar sari yetaklagan. U nafaqat quruq nazariy ma’lumotlar bilan cheklanmaydi, balki qadimgi Turkiston olimlarining geografiyadagi xizmatlarini eslatadi. Bu orqali u milliy g‘urur va o‘zligimizga sadoqatni ham uyg‘otadi.

Qolaversa, Behbudiyning boshqa ilmiy asarlari – “Islomning qisqacha tarixi” “Aholi geografiyasiga kirish”, “Rossiyaning qisqacha geografiyasi” kabi kitoblari ham shuni ko‘rsatadiki, u ilm-fanni faqat bilim emas, balki insonni uyg‘otuvchi, jamiyatni rivojlantiruvchi qudrat deb bilgan.

Shundan anlashimiz mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudi – shunchaki muallif yoki ma‘rifatchi emas, u xalq uchun tafakkur eshiklarini ochgan, fan va ma‘naviyatni bir butun holda targ‘ib qilgan ulkan siymo edi. Mahmudxo‘ja Behbudi 1919-yili Favqulodda komissiya aytg‘ochlari yordamida Shahrisabz bekligida qo‘lga olingan. Oradan taxminan ikki oy o‘tgach, Qarshiga keltirib zindonga tashlangan. Bir necha kundan so‘ng Qarshi begi Tog‘aybekning buyrug‘i bilan yordamchisi Nuriddinxo‘ja Og‘aliq Ahmadxo‘ja o‘g‘li tomonidan zindon yaqinidagi “podsholik chorbog‘”ida o‘ldirilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning qatl qilingani Samarqandda bir yildan keyin ma‘lum bo‘lgan. Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Sadridin Ayniy va boshqa shoirlar allomaga atab marsiyalar yozganlar.

Keyinchalik Mahmudxo‘ja Behbudiyning Samarqandda faoliyat yuritayotgan shogirdlari, safdosh va maslakdoshlari uning qabrini izlab topish, qotillarni aniqlash harakatiga tushadilar. Ular “Samarqand komissiyasi”sini tuzib, Qarshiga kelganlarida bu paytda ushr-soliq nazorati idorasining boshlig‘i bo‘lib olgan Nuriddin Og‘aliq ularning faoliyatiga yo‘l qo‘ymaydi. Qarshi shahridagi hukumat a‘zolari esa uning xohish-irodasiga qarshi chiqolmaganlar.

Amirlik davrida yuqori mansabda ishlagan Nuriddin Og‘aliqning sovet hukumatida ham o‘z mavqeyini saqlab qolishining sababi bolsheviklar bilan hamkorlikda Mahmudxo‘ja Behbudiyni yo‘q qilib yuborgani bilan bog‘liqligini hech kim inkor etolmaydi, albatta.

Ammo 1923-yilning kuzida BXSr hukumati taftish komissiyasi Qarshi viloyati soliq idorasi faoliyatini tekshiruvdan o‘tkazadi. Komissiya Nuriddin Og‘aliq hamda uning safdoshlari katta qonunbuzarlik va jinoyatga qo‘l urganlarini aniqlaydi. Chunonchi, Nuriddin Og‘aliq hukumatning 42 ming pud bug‘doyi va 20 ming oltin quymasini talon-taroj qilganlikda, mehnatkashlarning 1000-2000 tasini yarim och, yarim to‘q holatda o‘z yerlarida ishlatganlikda ayblanadi. Bundan tashqari, buyuk mutafakkir Mahmudxo‘ja Behbudi hayotiga zomin bo‘lgani bilan bog‘liq jinoyati ham qo‘shilib, sud Nuriddin Og‘aliqni otishga qaror qiladi.

Hukm 1923-yil 19-sentabrda Registon maydonida 5000 aholi ishtirokida amalga oshiriladi. “Buxoro axbori” gazetasida “Behbudiy va rafiqlarining o‘ldirilishiga sabab bo‘lg‘on fuqaro hukumatining molig‘a xiyonat qilgan mazkur Og‘aliq 19-sentabrda (1923-yil) otildi, demak, Behbudiy va rafiqlarining o‘chlari olindi”, deb xabar beradi.

Buxoro hukumati Qarshi viloyati ijroqo‘mi raisi Jo‘ra Zokiriy hamda Qarshi viloyat firqo‘mi Nazarov zimmasiga Mahmudxo‘ja Behbudiy qabrini qidirib topib, uning haykalini o‘rnatish vazifasini yuklaydi. Lekin bu mutasaddi shaxslar o‘zlariga yuklangan vazifani uddalay olmaganlar. “Ozod Buxoro” gazetasining 1923-yil 19-oktabrdagi sonida “Turkistonning mashhur jamoat xodimlaridan Behbudiyning ismini umrbod (abadiy) qoldirmoq uchun Buxoro Respublikasi qurultoyi Qarshi viloyatini Behbudiy viloyati deb ismlamakka qaror berdi”, deb xabar beradi.

Qarshi viloyati 1937-yilga qadar Behbudiy viloyati deb atalgan bo‘lib, 1937-yili boshlangan qatag‘onlar oqibatida viloyatdan alloma nomi olib tashlanadi. O‘zbekning barcha ziyolilari singari Mahmudxo‘ja Behbudiy ham millat ozodligi va taraqqiyoti uchun kurashgani uchun sovetlarning qora ro‘yxatidan o‘rin oladi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, barcha jadid bobolarimiz singari Mahmudxo‘ja Behbudiyning ham muborak nomi qayta tiklandi. Tarixchi va tilshunos olimlar tomonidan uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati hamda ilmiy merosini o‘rganish boshlandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev XX asr boshlarida Turkistonda zamonaviy ta‘lim tizimiga asos solgan, millat ozodligi, xalq farovonligi uchun kurashgan barcha jadidlarga, jumladan, Mahmudxo‘ja Behbudiyga ehtirom ko‘rsatib, yoshlarga o‘rnak qilib ko‘rsatish hamda ma‘naviy merosini chuqur o‘rganish bo‘yicha oqilona va adolatli ishlar qilayotgani yaxshi ma‘lum. 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomada milliy yetakchimiz “2020 yili xalqimiz tarixining murakkab damlarida ma‘rifat mash‘alasini baland ko‘tarib chiqqan ulug‘ alloma va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiyning 145 yillik tavallud sanasi keng nishonlanadi. Umuman, biz jadidchilik harakati, ma‘rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Bu ma‘naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”, degan ta‘kidlari buyuk allomaning millatimiz va davlatimiz oldidagi tengsiz xizmatlarining e‘tirofidir, albatta.

Prezidentimiz 2020-yil 30-sentabr kuni “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” munosabati bilan ziyolilarga qilgan murojaatida jadidchilik harakati va uning yirik namoyandalari haqida to‘xtalib, “...mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma’rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi... Bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo‘lda ular o‘zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar” dedi hamda uch jadid: Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovni istiqlool, ozodlik, erkinlik uchun qilgan fidokorligi, “milliy ta’lim va tarbiya tizimi”ni yaratishdagi hissasi uchun “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlanganini bildirdi. O‘z davridayoq “Turkiston jadidchilik harakati otasi” deb e’tirof etilgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning qilgan xizmatlari e’tirof etilib, davlatimiz rahbari tomonidan munosib taqdirlandi. Mustaqillik yo‘lida fido bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning umri millat va Vatan umri qadar boqiydir.

**Xulosa.** Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z umrini ilm-ma’rifat, ma’naviyat va xalq taraqqiyotiga bag‘ishlagan, jasoratli va fidokor ma’rifatparvar edi. Uning faoliyati zamonaviy o‘zbek jamiyatining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. U ta’lim, matbuot, sahna san’ati orqali xalq ongini uyg‘otishga, yosh avlodni bilimga undashga harakat qildi. Behbudiy nafaqat diniy, balki dunyoviy fanlarni targ‘ib qilib, milliy o‘zlikni anglash va rivojlantirish yo‘lida xizmat qildi. U yaratgan asarlar, ilgari surgan g‘oyalar bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, yoshlar uchun ibrat manbai bo‘lib qolmoqda. Uning mashaqqatli hayoti va shonli merosi tarix sahifasida abadiy saqlanadi. Mustaqillik yillarida uning nomi qayta tiklanib, xizmatlari munosib e’tirof etildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy – xalqimizning ma’naviy uyg‘onishida yo‘lchi yulduz bo‘lgan buyuk siymodir.



**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. “Manaviyat nashriyoti” Tanlangan asarlar, Istiqlol qahramonlari: Mahmudxo’ja Behbudiy Toshkent 1997 152,156-b
2. Milliy uyg’onish davri adabiyoti “Manaviyat” 2004 252,253-b
3. <https://jadid.uz/jadids/mahmudxoja-behbudiy/>